

2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”

IJODIY PARVOZ

2026-yil aprel № 4 (143) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOIIY
GAZETASI



VATANNI KUYLAMOQ SAODAT

Muhammad Yusuf tavalludining 72 yiliga bag'ishlandi

Bugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod qalbiga singdirishda adabiyot, ayniqsa she'riyatning o'rni beqiyosdir. Shu ma'noda, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yiliga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar nafaqat xotira marosimi, balki keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy va ijodiy harakat sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

DONIYOR MIRZO,

Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Yurtimiz bo'ylab shoir xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar izchil davom etmoqda. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Adiblar xiyobonida joylashgan Muhammad Yusufning haykali poyida “Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi” nomli adabiy-badiiy kecha tashkil etildi. Ushbu tadbir yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ularni milliy adabiyotga yanada yaqinlashtirish hamda shoir ijodini chuqur o'rganishga undashda muhim ahamiyat ega.

Tadbirida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev so'zga chiqib, Muhammad Yusuf ijodining o'zbek adabiyoti va madaniy hayotidagi o'rni beqiyos ekanini ta'kidladi. U shoir she'riyatida Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, yurtga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ulari

yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganini alohida qayd etdi.

Shuningdek, “Fidokorona xizmatlari uchun ordeni sohibi, shoirning rafiqasi Nazira as-Salom, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, falsafa fanlari doktori, professor Sayyora To'ychiyeva Muhammad Yusuf hayoti va ijodining ibratli jihatlarini haqida so'z yuritib, samimiy xotiralari bilan o'rtoqlashdilar. Bu chiqishlar yoshlar uchun shoir shaxsiyatini yanada yaqinroq anglash imkonini yaratdi.

Mazkur tadbir doirasida Muhammad Yusuf nomidagi ko'krak nishonini topshirish marosimi ham tashkil etildi.

Muhammad Yusuf nomidagi maxsus stipendiya uchun o'tkazilgan tanlovda 20 ga yaqin iqtidorli talabalar ishtirok etdilar. Shoirning hayoti va ijodiga oid test sinovlari-

dan o'tkazildi. Ilmiy-ijodiy maqolalari, ishlari hakamlar hay'ati tomonidan baholandi. Tadbir davomida shoir she'riyatining poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi, milliy ruh va zamonaviylik uyg'unligi ilmiy asosda ochib berildi.

Alohida e'tiborga loyiq jihatlardan biri – tadbirlar shoirning rafiqasi Nazira as-Salom bilan bevosita hamkorlikda olib borilayotganidir. Bu esa yoshlar uchun shoir hayoti va ijodi haqida birlamchi manbadan ma'lumot olish imkonini yaratmoqda.

Shuningdek, talabalar uchun Muhammad Yusuf uy-muzeyiga sayohat tashkil etildi. Ushbu tashrif mobaynida shoirning hayot yo'li, ijodiy merosi va shaxsiy buyumlari, haykali, suratlar bilan yaqindan tanishish yoshlar qalbidan unutilmas taassurot qoldirdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tarixi muzeyiga tashrif buyurilib, milliy adabiyotimiz taraqqiyot bosqichlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Adiblar xiyobonida shoir haykali poyida muntazam ravishda o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar esa ushbu jarayonning uzluksizligini ta'minlamoqda. Bu uchrashuvlar yoshlarning estetik didini shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va ijodiy tafakkurini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadbirlar ommaviy axborot vositalari – matbuot, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilmoqda. Bu esa yoshlarni yanada faol bo'lishga, o'z iste'dodini namoyon etishga undamoqda.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf tavalludining 72 yiliga bag'ishlangan tadbirlar oddiy yubiley emas, balki ma'naviy uyg'unish,

ijodiy yuksalish va milliy o'zlikni anglash jarayoni sifatida namoyon bo'ldi.

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf merosi bugungi yoshlar uchun nafaqat she'riyat, balki hayot maktabi, ma'naviy yo'lchi yulduzidir. Uni o'rganish, targ'ib qilish va davom ettirish iqtidorli yoshlarning muqaddas burchiga aylanishi zarur.

“Bizning milliy qadriyatlarimiz, adabiyotimiz va she'riyatimiz – bu millatimizning ruhiy boyligi. Shoirlarimiz va yozuvchilarimizning so'zi kelajak avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEV

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA

so'z va qalb uyg'unligi

O'zbekiston adabiyoti, ayniqsa zamonaviy she'riyat sohasida Muhammad Yusuf nomi alohida o'rin tutadi. U nafaqat o'zining she'riyati bilan, balki milliy ruh va ma'naviyatni targ'ib qiluvchi publitsistik ijodi bilan o'quvchilarning qalbidan chuqur iz qoldirgan shoiridir.

Davomi 2-betda

Bugungi sonda:

**IMOM
MOTURIDIYNING
ILMIY MEROSI**

yoshlar nigohida 4

**ZAMONAVIIY O'ZBEK
KINOSIDA**

milliy qadriyatlar va
badiiy talqin
muammolari

5

**MADANIYAT VA
SAN'AT TARG'IBOTIDA**

RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNING
AHAMIYATI

7

**Yoshlar
orasida**

kitobxonlikni
rivojlantirish

8




MUHAMMAD YUSUF IJODIDA

soʻz va qalb uygʻunligi

OZODA SUVONOVA,
"Madaniyat va
sanʼat sohasi menejmenti"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

◀ Boshlanishi 1- betda

Muhammad Yusuf ijodi yoshlar qalbini tarbiyalash, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, Vatan va millatga boʻlgan muhabbatni uygʻotish kabi muhim vazifalarni oʻzida mujassam etadi. Shoirning ijodiy merosi hayotiy va milliy qadriyatlarini uygʻunlashtirish bilan ajralib turadi. Shoir sheʼrlarida oddiy hayotiy voqealarni, insoniy his-tuygʻularni, ota-onaga, oila va jamiyatga boʻlgan mehr-muhabbatni samimiy tilda ifodalaydi. Shu bois, Muhammad Yusufning sheʼrlari oʻquvchilarda hissiy taʼsir uygʻotadi, ruhiy va maʼnaviy boylikka chorlaydi.



Muhammad Yusufning ijodiy faoliyatini chuqur anglash uchun uning sheʼriyatida insoniylik, sadoqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi qadriyatlar doimiy ravishda yoritilganini eʼtiborga olish kerak. Shoirning soʻz sanʼati oddiy boʻlishiga qaramay, katta maʼno va hayotiy tajriba bilan boyitilgan. Uning har bir satri yoshlar qalbida milliy ruhni uygʻotadi, ularni Vatan va xalqqa sadoqatli boʻlishga undaydi.

Shoirning ijodi nafaqat oʻquvchilarni maʼnaviy jihatdan boyitadi, balki jamiyatning ijtimoiy hayotidagi dolzarb masalalarni ham yoritadi. U oʻz maqolalarida yoshlar tarbiyasi, ona tili va milliy maʼnaviy masalalarini oʻziga xos uslubda yoritgan. Shu sababli, Muhammad

Yusufning ijodi nafaqat adabiy meros, balki milliy maʼnaviyatni yuksaltiruvchi amaliy manba hisoblanadi. Sheʼriyatdagi samimiyat va hayotiylik Muhammad Yusuf ijodining eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shoir oʻz asarlarida murakkab hissiyotlarni oddiy, tushunarli va yurakdan chiqqan soʻzlar bilan ifodalaydi. Bu samimiylik uning sheʼrlari har bir oʻquvchiga, har bir yurakka yaqin boʻlishini taʼminlaydi. Har bir satrida insoniy tuygʻular, oilaviy qadriyatlar, mehr-muhabbat va millatga sadoqat kabi mavzular yoritilgan. Shu jihat Muhammad Yusufning zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida alohida oʻrin egallashiga sabab boʻladi. Shoirning ijodida hayotiylik ham

muhim oʻrin tutadi. U oddiy voqealar va oddiy insonlarni tasvirlash orqali oʻquvchi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot oʻrnatadi. Masalan, oiladagi mehr-muhabbat, doʻstlik, jamiyatdagi ijtimoiy masalalar yoki milliy qadriyatlar uning sheʼrlari orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, u yoshlar qalbiga maʼnaviy tarbiya berish, ularni Vatan va xalqqa sadoqatli boʻlishga undash vazifasini ham bajaradi.

Muhammad Yusufning sheʼriyatida samimiyat va hayotiylik oʻquvchini hayotiy haqiqatlarga yaqinlashtiradi. Shoirning soʻzlari orqali oʻquvchi oʻz hayotidagi kichik voqealarni, insoniy his-tuygʻularni, oilaviy va jamiyatdagi munosabatlarni yaxshiroq anglaydi. Shu jihatdan uning sheʼriyatini oʻqish nafaqat estetik zavq beradi, balki maʼnaviy va axloqiy tarbiya manbai sifatida xizmat qiladi. Prezidentimiz taʼkidlaganidek: "Shoirimiz va yozuvchilarimizning samimiy soʻzi, yurakdan chiqqan fikri yoshlar qalbida milliy ruh va maʼnaviyatni uygʻotadi". Zero, Muhammad Yusufning ijodidagi samimiyat va hayotiylik nafaqat adabiy ahamiyatga ega, balki u yoshlar qalbini tarbiyalash va jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni yoritishda muhim vosita sifatida namoyon boʻladi.

Shoirning publitsistik yoʻnalishdagi ijodiy faoliyati faqat sheʼriyat bilan cheklanmaydi. U oʻz asarlarida jamiyat hayoti, yoshlar tarbiyasi, milliy maʼnaviyat, ona tilining qadriyatlari va ijtimoiy masalalarni keng yoritgan. Uning gazeta va jurnallarga bergan publitsistik maqolalari bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, u milliy qadriyatlarini hurmat qilish, milliy ruhni qadrlash va yoshlarni Vatan uchun fidoyilikka undashni targʻib qiladi.

Muhammad Yusuf publitsistik maqolalarida yoshlarni faol hayotga, ijodiy va ijtimoiy faoliyatga chorlaydi. U ularga milliy

ruhni sevishni, ona tilimizni qadrlashni, oʻz maʼnaviy qadriyatlarini rivojlantirishni oʻrgatadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolar, oilaviy qadriyatlar, mehr-muhabbat va doʻstlik kabi mavzularni yoritib, oʻquvchida hayotiy va axloqiy xulosa chiqarish imkonini beradi. Muhammad Yusufning publitsistik faoliyatida shoirlik mahorati bilan jurnalistik uslub uygʻunlashadi. U murakkab ijtimoiy masalalarni sodda tilda ifodalaydi, oʻquvchiga oʻz hayoti va atrofidagi voqealarni tahlil qilishga yordam beradi. Shu jihat uning publitsistik maqolalarini nafaqat oʻqish zavqi, balki maʼnaviy tarbiya manbai sifatida ham qadrlanishiga sabab boʻladi.

Davlatimiz rahbari oʻz nutqlaridan birida quyidagi fikrlarni ilgari surgan edi:

"Har bir shoir va yozuvchi, har bir asar – bu millatimizning boyligi va kelajak avlodning tarbiyaviy manbai. Muhammad Yusufning soʻzi esa oʻzbek ruhining ifodasi". Darhaqiqat, shoirning ijodi yosh avlod qalbida milliy ruh va maʼnaviyatni uygʻotishda beqiyos ahamiyatga ega. Yoshlar uchun uning sheʼrlari va publitsistik maqolalari estetik zavq berishi bilan birga hayotiy va axloqiy tarbiya manbai. Zotan, Muhammad Yusuf ijodidagi har bir soʻz, har bir satr, har bir maqola yosh avlod qalbida kelajakni shakllantiradigan kuchga ega. Shoirning samimiyligi, hayotiyligi va milliy qadriyatlarini targʻib qiluvchi ijodi oʻzbek adabiyoti tarixida abadiy iz qoldiradi. Bugungi kunda uning sheʼrlari va publitsistik maqolalari yangi avlod uchun ilhom manbai boʻlib, yoshlarni maʼnaviy boyitadi, ularni vatanparvar, fidoyi va insoniy fazilatlarini qadrlaydigan fuqarolar qilib tarbiyalaydi. Shu jihatdan Muhammad Yusufning ijodi nafaqat oʻquvchi qalbini zabt etadi, balki oʻzbek milliy ruhining, madaniy merosining va maʼnaviy qadriyatlarining saqlovchisi sifatida xizmat qiladi.

MUHAMMAD YUSUF SHEʼRIYATIDA

milliy qadriyatlar va vatan sevgisi

Haqiqiy shoirning tugʻilishi ham aslida bahorning tugʻilishi yangligʻ, koʻklam osmonidagi chaqinlarning dunyoga kelishi bir ilohiy, bir samoviy hodisadirki, bu holatning sir-sinoati bilan mazmun-mohiyati Yaratganning oʻzigagina maʼlum. Shu maʼnoda, "Shoirilar osmon-u falakda paydo boʻlib, yerda yashaydilar", degan eski naql ham Navroʻz kabi yangi tuyuladi. Ushbu iqtibosni keltirishimizdan maqsad shuki, jafokash zaminda odamzod boshiga nimaiki tushsa, neki jabr-u sitamlar uning insoniy yashashiga daxl qilsa, barchasi shoir yuragini timdalab oʻtadi. Insonning maʼnaviy-axloqiy hayotiga, uning kamoli emas, tanazzuliga sabab boʻladigan har qanday yovuzlik shoir qalbining eng ashaddiy dushmanidir. Shu bois, "Gʻarblik donishmandlar dunyoga darz ketsa, eng avval shoir yuragini sindiradi", degan hikmatni qayta-qayta taʼkidlab kelgan.

Oʻzbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodi mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyatining eng yorqin badiiy moʻjizalaridan biri. Uning satrlarida milliy ruh tashqi pardo emas, balki ichki mohiyat sifatida namoyon boʻladi. Shoirning obrazlari, detallar tanlovi, tasvir mezon barchasi oʻzbek xalqining urf-odat, ruhiyati, dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq. Zotan, adabiyotshunos Nurboy Jabborov aytganidek: "Milliy ruhdan mahrum tafakkur qanotsiz qushdir." Muhammad Yusuf ana shu qanotni oʻz xalqiga qaytarib bergan shoir sifatida adabiy

jarayondan munosib oʻrin egalladi.

Bugungi globalashuv jarayonida har bir millatning eng muhim vazifalaridan biri – oʻzligini asrash, milliy madaniy merosini tiklash va yosh avlodni ana shu qadriyatlarga sadoqat ruhida voyaga yetkazishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oʻzining bir qator asarlari hamda ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvlarida aynan shu masalani chuqur taʼkidlab keladi. Unga koʻra, har qanday xalqning maʼnaviyati oʻz tarixidan, koʻhna madaniy yodgorliklaridan, buyuk shaxslar hayoti va ijodidan

uzilmaydi. Shu bois, davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uygʻunlashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab bermoqda. Ushbu fikrlar istiqbol dastlabki yillarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham chuqur yoritilgan edi. Uning: "Maʼnaviy qadriyatlarini tiklash – milliy oʻzlikni anglashning tabiiy jarayonidir", degan fikrlari bugungi adabiyotshunoslik va maʼnaviyat siyosatining nazariy asosiga aylanib ulgurgan. Bu oʻzgarishlar jarayonida badiiy adabiyot, xususan, sheʼriyatning tutgan oʻrni beqiyosdir. Zero, badiiy ijod – milliylik, umuminsoniylik va individuallik uygʻunligidan iborat murakkab hodisa. Xalqchilikni asosiy tamoyil deb bilgan olimlarning (Belinskiy, I.Sulton, N.Jabborov) fikricha, haqiqiy adabiyot avvalo millat ruhining badiiy koʻzgidir. Ana shunday ruhiy koʻzgular sirasida Muhammad Yusuf sheʼriyati ajralib turadi.

Vatan sevgisi esa, Muhammad Yusuf ijodining yuragi desam adashmagan boʻlaman. Ijodkor sheʼrlarida yurtni ona kabi ulugʻlab, yurtning tuprogʻini boylıklardan ham ustun qoʻyadi. Shoirning "Vatan" soʻzi oʻzida sogʻinchi, gʻurur, minnatdorlik va masʼuliyat tuygʻularini jamlagan. Muhammad Yusuf uchun Vatan faqat geografik hudud emas, balki bu xalqning ruhiyati, tariximiz, ajdodlarimizning nomusi, ota-onalar duosi, yosh avlodning kelajagidir. Muhammad Yusufning milliy ruh bilan yoʻgʻrilgan satrlari bugun ham oʻquvchiga kuch beradi. Uning sheʼrlari yosh avlodni oʻzligini unutmazlikka, tarixidan faxrlanishga va yurt uchun masʼul boʻlishga undaydi. Muhammad Yusuf

▶ Davomi 3-betda



Boshlanishi 2- betda

ijodi shuni ko'rsatadiki, haqiqiy she'riyat inson yuragiga Vatan sevgisini singdira oladigan kuchdir. Shoirning she'riyatida milliy qadriyatlar va Vatan muhabbati tabiiy, sodda va ta'sirchan ifoda qilinganki, bugungi kunda ham bu satrlar o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Shoir o'zining xalqona ohangi bilan milliy ruhimizni asrab kelayotgan, bizni Vatan degan muqaddas tushunchaga yanada yaqinlashtirayotgan adibdir.

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim.

O'zim xoqon, o'zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim.

Mazkur satrlar orqali Muhammad Yusuf Vatanini nafaqat sevishini, balki uni hayotining eng katta boyligi, g'ururi va baxti deb bilishini ifodalaydi. Shoirning samimiy va xalqona ohangdagi bu misralari o'quvchi qalbida ham Vatanga nisbatan mehr, sadoqat va faxr tuyg'ularini uyg'otadi

Muhammad Yusuf ijodida nafaqat vatan sevgisi, balki, milliy qadriyatlar, milliy kiyimlar, betakror urf-odatlarimiz ham o'z ifodasini topgan. Masalan, "Do'ppi", "Unutish", "Qizlar qo'shig'i", "Chimildiq" singari she'rlar nafaqat badiiy timsolga boy, balki milliy o'zligimizning ma'naviy belgilarini tiklab beruvchi asarlardir. She'rlarda Vatan mavzusi alohida o'rin tutadi. Uning she'rlari Vatan uchun fidoyilik, sadoqat, iztirob va faxr uyg'unligidir. Zero, shoirning o'zi ta'kidlaganidek, "Vatan haqida ko'p va xo'p yozmagan shoir shoir bo'la olmaydi." Shoirning mashhur satrlari shuni tasdiqlaydi:

Tovonimga kirgan tikaning suyuk,

Kaftdan zirapchangni yulmay sevaman...

Bu satrlar Vatan sevgisining yuksak poetik namunasi bo'lish bilan birga, o'zbekona sadoqatning lirik ifodasidir. Yana bir mashhur she'rdagi:

"Rimni alishmasman bedapoyangga..."

misralari Vatanni qadrlashning milliy ruhdan to'yingan timsolidir. Shoir uchun Vatan tarixiy shon-shavkat emas, balki oddiy bolaning kulgisi, oqsoqolning duosi, tandır hididagi bag'rikeng hayot tarzidir.

Muhammad Yusuf she'riyatining yana bir muhim jihati, o'zbek ayoliga, uning or-nomusi va go'zalligiga bo'lgan

ehtiromdir. Shoir o'zbek qizlarini ideal jamiyatning tayanchi, millatning or-nomusi sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, "Chimildiq" she'ridagi milliy mentalitet talqini o'ziga xos badiiy fenomen bo'lib, unda shoir chinakam poetik mahorat ko'rsatgan. Shoirning "Turkman qiz" she'ri ayni hozirgi zamon qizlariga xos desam mubolag'a bo'lmaydi.

Aylanaman, Sharqni kezib aylanaman,

Iboli bir yor topolmay o'ylanaman.

O'z yurtimning suluvlari til uqmasa,

Uzun ko'ylak turkman qizga uylanaman...

Ushbu she'rda turkiy xalqlar xususan, qardoshlarimiz bo'lmish turkmanlarning milliylik namunasi sifatida ifodalaydi. Muhammad Yusuf "Turkman qiz" she'rini ma'lum bir millatni targ'ib qilish uchun emas, balki xalq orasida ko'ringan go'zallik va sharqona ayol timsolini badiiy tarzda ifodalagan. Qolaversa, o'zbek qizlariga milliy sharq an'alarini saqlab qolish bilan bir qatorda o'zbek qizlariga xos or-nomus masalalari ham mahorat bilan ifodalab bergan.

Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan g'oyalari, buyuk ajdodlar merosi, adabiy an'analarni qayta tiklash, ijod maktablari faoliyatini kuchaytirish, bugungi adabiy jarayonning tamal toshiga aylandi. Xususan, 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qaror, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarori ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish, iqtidorli yoshlarning adabiyot va san'atga qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining Andijon davlat chet tillar instituti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi, shoir ijodini chuqur o'rganish bo'yicha tizimli boshlang'ich maktab yaratdi. 2024-yilda o'tkazilgan "Erkli elning erka shoiri" ilmiy-amaliy anjumani esa, Muhammad Yusufning milliy ong va Vatandarparvarlik ruhiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda tadqiq etishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollikni shakllantirish, ular ongida Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining qator asarlari va



OZODA NURPO'LATOVA,
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" mutaxassisligi (rus guruhi) 1-bosqich magistranti

ma'naviyat sohasiga doir nutqlarida yosh avlod tarbiyasida tarixiy meros, milliy qadriyatlar, buyuk ajdodlar hayoti va ijodini chuqur targ'ib etish zarurligini ta'kidlab keladi. Chunki, davlat rahbari aytganidek, xalqning ma'naviyati uning tarixiy xotirasi, urf-odatlarini, an'analari, ma'naviy boyliklari bilan uzviy bog'liq. Aynan mana shu boyliklar millatni millat qiladi, avlodlardan avlodga o'tuvchi ruhiy poydevor vazifasini bajaradi.

Muhammad Yusuf she'riyati milliy ruhning eng tirik, eng yorqin, eng samimiy ko'rinishidir. Shoirning satrlarida: millatning kechmishi va ertasi, vatanparvarlikning sof talqini, xalq dardi, sharq psixologiyasi, tarixiy xotira, ma'naviy jasorat, o'zbekona so'z ohangi badiiy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham shoir she'riyati bugun ham xalqimiz qalbidan joy olgan. Uning so'zlari vaqt sinovidan o'tgan, kelajak avlodni tarbiyalaydigan, milliy ruhni mustahkamlaydigan bebaho merosdir.

MENEJER — TARIXIY SHAXSLAR MISOLIDA

"Menejment" so'zi o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, inglizcha "manage" – boshqarmoq, tartibga solmoq degan ma'noni anglatadi. "Menejmet" – bu boshqaruv, harakatlantirish bo'lib har bir texnika, hayvonot olami va insoniyatni boshqarish mumkin. Shuningdek, odamlarni ya'ni ishchi xodimlarni boshqaruvchi va ishlarni tashkil qiluvchi shaxs bu – menejerdir.

Umuman olganda, menejerlik miloddan avvalgi davrlarda ham mavjud bo'lgan. Qabila yoki ovul bo'lib yashaganda qabilani "Matriarxat" davrida ona boshqargan. Chunki, o'sha davrlarda onalar bolalari bilan ko'p vaqt o'tkazgan va tarbiya bergan. Bu davrda ona ovqatni va kundalik qabala yumushlarini taqsimlagan. Nimaga bu paytda matriarxat davri bo'lgan, chunki bu davrda qabilalar ko'chmanchi bo'lib yashagan, ko'chmanchilikda aholi ko'chib yashaganda otalar ko'pincha ovchilik yoki dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

IX-X asrlarda ilm-fan va madaniyat rivojlangan bo'lib, bu vaqt "Birinchi Renessans" davriga to'g'ri keladi. Aynan shu davr oralig'ida Xorazmshohlar davlati vujudga keladi va hammamizga tanish bo'lgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi buyuk shaxs bo'lib shakllanadi. Zero, u menejerlikka loyiq bo'lgan barcha xislatlarga ega bo'lgan. Masalan, qo'rqmas, jasur, tavakkalchi, qo'shinini oldinga boshlab boradigan va eng muhimi, hech qanday yengilishni tan olmagan. Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi kurashda Hind daryosi bo'yida o'zini daryoga tashlaydi va narigi qirg'oqqa omon chiqib ketadi. Darhaqiqat, u tavakkal qilgan, ham jangda mag'lub

bo'lishni istamagani uchun shunday yo'l tutgan.

Yana bir buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz ham davlat boshqaruvida odilona yo'l tutgan. U Movarounnahrni birlashtira olgan va buyuk davlat qurgan. Amir Temur janglarda o'zining qo'shinini markazini boshqarsa, yana o'ng qanot va chap qanot qo'mondonlari bilan qo'shinni tortgan. Bu Amir Temurning boshqaruvchilik taktikalari bilan biri hisoblanadi. Davrlar o'tishi bilan davlat tepasidagi sulola vakillari taxtni egallaganlar, lekin bu vaziyatda ilmga yoki boshqaruvlik ko'nikmalariga egami, yo'qmi, ahamiyatsiz bo'lgan, shuningdek agar majbur bo'lsa taxt tepasiga yoshlikdan kelganlar ham bor. Bunga misol qilib o'zga yurtida Boburiylar sulolasiga asos solgan ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur bo'ladi. Bobur atiga 12 yoshida otasining vafotidan keyin Farg'ona taxtiga keladi. U yosh bo'lishiga qaramay, boshqaruvchilikni uddalashga va Movarounnahrda markazlashgan davlat qurishga intilgan. Biroq Shayboniyxonlar bilan bo'lgan tortishuvlarda mag'lub bo'lgach, vatanni tark etadi va Hindistonga boradi. Bobur o'zga elga ketganiga qaramay, buyuk davlat qurishni, hind xalqini

birlashtirishni va boshqarishni uddalagan. U bosh sarkarda bo'lib askarlarni qanday boshqarish haqida ilmiy ko'nikmalarga ega bo'lib, o'zining Boburnoma asarda boshqaruvlik ko'nikmalari to'g'risida aytib o'tgan. Bobur faqatgina markazlashgan davlat quribgina qolmay, davlatda iqtisodiy islohotlarni ham amalga oshirgan. Jumladan, yerdan olinadigan va jon soliqlariga yengillik qilgan, shu bilan birga, bozor iqtisodiyotini aylanishini osonlashtirish uchun savdo yo'llari qurdirgan. Shuningdek, davlat siyosatini adolatli boshqarish uchun qat'iy qonunlar tuzadi va mahalliy hokimiyat ustidan monitoring o'rnatadi. Aynan shu harakatlari menejmentlik fazilatlarini hisoblanadi.

Yaqin o'tmishga kelib, ilm-fan va texnika rivojlanish g'arb davlatlardan boshlangan. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlariga kelib Yaponiya, Angliya va Germaniyada menejmentlikka bog'langan ehtiyoj kuchaygan va bu vaziyat "Menejment" fanini yaratilishiga olib kelgan. Yaponiya davlatida menejer tayyorlash universitetlari ochildi. Negaki, bu davlatda biznes, ishlab chiqarish va savdo-sotiq yuqori pog'onalariga chiqqan. O'z navbatida bu biznesni boshqarish, inson resurslarini boshqarish va marketing sohalari ham rivojlana borgan. Yaponiyada menejerlar eng birinchi o'zidan ham biznes va xodimlarni muhim deb bilishgan. Ular kompaniyalarni rivojlantirish uchun avvalambor, ishchi xodimlarni rag'batlantirish va oila bilan ish hayotini bir xil balansda saqlash uchun xodimlar bilan shaxsiy suhbatlar tashkil qilib turganlar. Hozirgi kunda Yaponiyada kompaniyalarni faqat inson emas texnologiyalar ham boshqarmoqda. Ya'ni, sun'iy intellekt yordamida ko'pgina soha ishlari osonlashadi. Yapon menejerlari sun'iy intellekt bilimlarini ham juda puxta o'rganib, o'zgartirishmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik davrlaridan

SHAHRIYOR RAHIMBERDIYEV,
"Menejment" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

keyin Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida ko'plab sohalarga menejerlar kerakligini aytganlar. Shundan buyon bir qancha sohalarda menejerlarga ehtiyoj ortgan, ya'ni sotuv menejerlari va biznes-kompaniya menejerlari fikrimizga misol bo'la oladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yurtimizni yanada rivojlantirish maqsadida maqsadli reja tuzgan bo'lib, bu reja 2017-2021-yillarda "Harakatlar strategiyasi" va 2022-2026-yillarni qamrab olgan "Taraqqiyot strategiyasi"dir. Eng muhimi, bu davrda menejerlar tayyorlash ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Menejerlar hozirgi kunda qanday bo'lishi kerak? Ular stressga chidamli, harakatchan va jamoani yetaklay ola bilishi muhimdir. To'g'ri, ushbu soha rivojlanishi iqtisodiyotga katta foyda hisoblanadi, lekin shu bilan birga, hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida deyarli 80-85 foiz sohalarni sun'iy intellekt boshqarmoqda. Bu shuni anglatadiki, yaqin 5-10 yil ichida dunyoda ko'plab sohalarda ish kamayishiga olib keladi. Shuning uchun ham zamonaviy menejerlar faqat kitobiy bilimlarni egallab qolmay, balki texnologik bilimlarni ham egallab olishi kerak. Zamonaviy menejer nafaqat kompyuter sohalari va tajribalari egasi bo'lishi, balki jamoa bilan ishlay olishi, tavakkalchi, qobiliyatli bo'lishi va kreativ yondashishi zarur. Bu fazilatlar bilan menejerlarimiz zamonaviy davrda kompaniya, firma va tashkilotlarni albatta samarali boshqara oladilar.



IMOM MOTURIDIYNING ILMIY MEROSI

yoshlar nigohida

Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy, ma'naviy-madaniy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, o'rta asrlarda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir asarlarning jahon ilm-fani va madaniyati sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissa dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan hamisha yuksak e'tirof etib kelinadi.

Prezidentimiz tomonidan e'tirof etilgan birinchi Renessans (XIX-XII asrlar) davrida yashab o'tgan bobokalonlarimiz – Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi yuzlab allomalarning ilmiy merosi, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirishga doir g'oyaviy qarashlarini biz bugungi kunda faxr bilan tilga olamiz. Ularning ilmiy-falsafiy qarashlari, xususan, jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuksak e'tirof etib kelinadi.

Yangi O'zbekiston yoshlari qatorida biz bo'lajak madaniyatshunoslar ana shunday buyuk ajdodlarimizning madaniy merosiga munosib voris bo'lishni maqsad qilganmiz. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari taraqqiyotning yangi bosqichiga intilayotgan xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy barkamolligini namoyon qilishi bilan bir qatorda, uchinchi Renessans davri poydevori vazifasini bajaruvchi ilm-ma'rifat maskanlari bo'lishi, shubhasiz. Bularning barchasi O'zbekiston jahonga yuksak madaniyat va ma'rifat bilan yuz tutayotganligining yorqin timsoli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qayd etish kerakki, ajdodlarimiz tarixdagi har ikki Renessansning alohida e'tirof etilishi bejiz emas. Buni o'z davrida ulug' bobokalonlarimiz tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy qarashlari asrlar davomida jahonning eng ilg'or, salohiyatli olimlar tomonidan o'rganib kelinayotganligi bilan ham asoslash mumkin. Qolaversa, daho va faylasuflarimizning ilmiy merosi asrlar davomida jahon ilm ahli madaniy tafakkurining yuksalishiga katta turtki bo'lgan. Yurtimizda yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz ilm-ma'rifat yo'lida umrini sarflab, o'sha davrda mavjud barcha fanlar bo'yicha yetuk olimlar sifatida katta salohiyatga ega bo'lishgan.

Allomalarning hayoti va boy ilmiy-ma'naviy merosiga qiziqish hamisha xalqaro jamoatchilik, xususan, dunyo olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular orasida tengsiz olim va imomlik mavqeiga munosib bobokalonimiz Imom Moturidiy ilmiy merosi butun Sharq va G'arb ilm ahlini qiziqitirib keladi. Buyuk

olimning islom olamidagi mavqei juda yuqori bo'lib, u kishiga **"Alamul huda"** – hidoyat bayrog'i, **"Imomul huda"** – hidoyat imomi, **"Musahhihu aqidati ahlis-sunna"** – Ahli sunna aqidasi to'g'rilovchi, **"Imomul mutakallimin"** – Mutakallimlarning imomi kabi nufuzli unvonlar berilganligi ham yuqoridagilarni tasdiqlaydi. Moturidiy ta'limotining asoschisi Abu Mansur Muhammad Moturidiy **"Bizning Alloh taolo to'g'risidagi bilimlarimiz arshi a'lodanmi yoki aqldanmi?"** degan savoliga **"aqldan"** deb javob qilib **"aql"** orqali bilishning o'ta muhimligiga urg'u berib o'tgan edi.

Keyingi yillarda diniy qarashlarda ayrim ixtiloflar yuzaga kelayotganligi, insonlar ongini to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi turli oqimlarning faoliyati tobora kuchayib borayotganligi ham aslida islom madaniyatining asl falsafasini insoniylik g'oyalari noto'g'ri talqin qilinishi bilan bog'liq holda kechayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, bugungi kunda yuzaga kelib tobora dolzarblashib borayotgan mafkuraviy kurash jarayonida aqida ilmi borasidagi tadqiqot va izlanishlarni yanada takomillashtirishga katta zarurat yuzaga kelmoqda. Buning uchun biz madaniyatshunoslar talaba yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya qilishni zimmamizdagi muhim vazifalardan biri sifatida qarashimiz lozim. Bu borada, buyuk alloma Imom Moturidiyning **"Qurolingni ilmdan yasa"**, – degan hikmatlari fikrimizni yana bir bor asoslaydi. Shubha yo'qki, tengdoshlarimiz orasidan hali ko'plab yoshlar islom dunyosining buyuk mutafakkiri Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi hamda aqidaviy manbalarni chuqur o'rganib, ulkan merosni xalqaro jamoatchilik orasida keng targ'ib qiladilar.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ulug' bobokalonimizning g'oyaviy merosi va hayoti haqida bugungi yosh avlod qanday tasavvurga ega ekanligini bilish maqsadida poytaxt yoshlariga bir nechta savol bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 40 foizi ulug' allomaning faqat nomi bilan tanish xolos. 5 foizi mutafakkirning asarlarini nomini qisman eshitgan yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotga ega bo'lgan. 20 foizi buyuk faylasuf haqida hech qanday tasavvurga ham ega emas. 20 foizi so'rovnoma ishtirok etishni istamadi. 15 foiz yoshlar esa Moturidiyning faoliyati bilan tanish.



ANORA TURSUNALIYEVA,
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Ulug' allomaning faoliyatini keng targ'ib qilish va yoshlar orasida uning ilmiy merosini o'rganishga qiziqishini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisobladik:

- ✓ Samarqanddagi Moturidiy yodgorlik majmuasiga har yili talaba yoshlar uchun sayohat uyushtirish;
- ✓ ijtimoiy tarmoqlarda ulug' bobokalonimizning yaratgan asarlari va ibratli hayotiy faoliyati to'g'risida qisqa va tushunarli videolar va postlar yaratish, hujjatli film va ko'rsatuvlar tayyorlash;
- ✓ ta'lim muassasalarida talabalar uchun seminar, konferensiya va ochiq darslar tashkil qilish;
- ✓ tanlov asosida mavzuga doir (insho, maqola, viktorina) tashkil qilish;
- ✓ zamon talab qilayotgan texnologiyalar asosida allomaning virtual siymosini (3D) yaratish.

Ta'kidlash joizki, qaysi sohada yangilik kashf etilmasin, agar u chin haqiqat bo'lsa, zamonlar o'tishi bilan ilm xazinasidan munosib o'rin oladi. Bundan ko'rinadiki, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar ko'lami anchagina keng. Bu kenglikni to'ldirish esa, har birimizning birinchi galdagi vazifamizga aylanishi lozim.

Shuningdek, Alisher Navoiy "Nasoyim-ul-muhabbat"da Moturidiyning ruhiy-ilohiy qudrati haqida alohida hikoyat keltirgan. Uning "Pandnoma"si X-asr pandnomasining eng yaxshi namunalari bo'lib, kitobxonni ilm o'rganishga, kasb egallashga, yaxshi xulq egasi, insonparvar, shirinsuxan, saxovatpesha bo'lishga undaydi. Ushbu asarning to'qqizinchi bobida shunday deyilgan:

- ➔ Maqsadga yetish yo'lini sabrda bil.
- ➔ Nasihatga quloq tutmaydigan lashkar – lashkar emas.
- ➔ Itoatsiz raiyat – raiyat emas.
- ➔ Qurolsiz shijoat nodonlikdir.
- ➔ Yurting obodligini istasang, xalqingni himoya qil.
- ➔ Mulkning nizomli rivojlangan bo'lishini istasang, xoliq va xalqing xursandligini ko'zla.
- ➔ Buyuklarning kichiklarga xizmatini kichik bil, Kichiklarning buyuklarga xizmatini buyuk bil.
- ➔ Yengiltaklikni xorlik va devonalik bil.
- ➔ Hashamdorlik, baxillik va hasadni tanang, moling, martabang uchun zahar bil.
- ➔ G'ofil amirni amir sanama.
- ➔ Hiradmand(donishmand)lar suhbatini ko'zla.
- ➔ Jahon ko'rgan kishilarni nadim qil.
- ➔ Olam obodligini karamu adolatda bil.
- ➔ Qalbingni pok tutsang, murodga yetasan.
- ➔ Maqtanchoqlik qilma, birov seni maqtasa, undan faxrlanma.
- ➔ Nifoqni ilmsizlik oqibati, deb bil.
- ➔ O'z aybingni ko'rguvchi bo'l.
- ➔ O'zingni ta'madan yiroq tut.
- ➔ Ranjni osoyishtalik natijasi bil.
- ➔ Zahmat oqibatini shodlik, deb bil.



ZAMONAVIY O'ZBEK KINOSIDA

milliy qadriyatlar va
badiiy talqin muammolari

Kino san'ati – bu nafaqat tasvirlar ketma-ketligi, balki millatning madaniy kodi, uning o'tmishi va bugunini bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. XXI asr axborot va texnologiyalar asrida milliy kino oldida ulkan vazifa turibdi, ya'ni jahon kinosi standartlariga javob beradigan sifatli mahsulot yaratish bilan birga, o'zbek xalqiga xos bo'lgan lutf, ibo, andisha va matonat kabi qadriyatlarni sofligicha saqlab qolishdan iborat. Bugungi kunda o'zbek kinosida “tijorat kinosi” va “davlat kinosi” o'rtasidagi farq keskinlashib borayotgani milliy qadriyatlarining ekrandagi talqiniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Kino san'ati nafaqat ko'ngilochar vosita, balki millatning ma'naviy qiyofasini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Bugungi kun globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlab qolish va uni yosh avlodga yetkazishda kinematografiyaning o'rni beqiyos. Zamonaviy o'zbek kinosi murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda. Bir tomondan texnik imkoniyatlar kengaymoqda, ikkinchi tomondan esa badiiy talqin va milliy qadriyatlarni to'g'ri aks ettirish masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunga kelib, o'zbek kinosida tarixiy janrga e'tibor kuchaydi. Jumladan, kino san'atida Jahongir Ahmedovning “Ilhaq” filmi bu borada yangi burilish yasadi. Filmida milliy qadriyat shunchaki tashqi bezak emas, balki qahramonlarning ichki irodasi orqali ko'rsatildi. Zulfiya Zokirova obrazi – o'zbek onasining matonati, farzand tarbiyasidagi qat'iyati va musibat qarshisidagi metin irodasining yuksak badiiy talqinidir. Tarixiy filmlar orqali milliy qadriyatlarni tiklash, yoshlarda vatanparvarlik hissini uyg'otishning eng samarali yo'lidir.

So'nggi yillarda sur'atga olingan “Ilhaq”, “Rangsiz tushlar”, “Faridaning ikkiming qo'shig'i” kabi filmlarda milliy qadriyatlar turli rakurslarda ko'rsatilgan. Masalan rejissyor Yolqin To'ychiyev tomonidan sur'atga olingan “Faridaning ikkiming qo'shig'i” film nomi va undagi “qo'shiq” tushunchasi ayol kishining ichki kechinmalari, orzu-armonlari va tushunilmagan dunyosiga ishora qiladi. Siyosiy evrilishlar fonida bir oilaning parokanda bo'lishi – butun bir jamiyat va an'analarning inqirozi sifatida talqin etiladi. Biroq ko'plab ommaviy madaniyatga yo'naltirilgan xususiy filmlarda milliy qadriyatlar faqat to'y-hasham, dabdabali hayot va yuzaki urf-odatlar bilan cheklanib qolayotgani kuzatilmoqda.

Afsuski, xususiy kinostudiyalar tomonidan yaratilayotgan ko'plab komediya va melodramalarda milliy qadriyatlar noto'g'ri yoki yuzaki talqin qilinmoqda. Masalan, oilaviy munosabatlar tasvirlangan filmlarda “qaynona-kekin” mojarolari, to'y dabdabalari va moddiy boylikka ruju qo'yish holatlari haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatiladi. Bu esa chet ellik tomoshabinda o'zbek turmush tarzi haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otadi. Qadriyat – bu faqat urf-odat emas, balki ma'naviy axloqdir. Ko'plab zamonaviy filmlarda esa axloqiy mezonlar tijorat manfaatlariga yo'lida qurbon qilinmoqda.

Milliy qadriyatlarni ekranda ko'rsatishda vizual til (ranglar, nur, kadr kompozitsiyasi) muhim ahamiyatga ega. Bu borada, mahoratli rejissyor Ayub Shahobiddinovning “Rangsiz tushlar” filmi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Rejissyor inson ruhiyatidagi kechinmalarini, o'zbek jamiyatidagi ayrim qotib qolgan qarashlarni tasvirlab beradi. Bu yerda milliy qadriyat – inson taqdiriga bo'lgan munosabatda aks etadi. Shuningdek, Yolqin To'ychiyevning “Faridaning ikki ming qo'shig'i” filmida milliy muhit va o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi badiiy metaforalar yordamida mahorat bilan chizilgan.

Zamonaviy ekran qahramoni milliy mentalitet tashuvchisi bo'lishi kerak. Ammo ba'zi filmlarda g'arb andozalariga ko'r-ko'rona taqlid qilish natijasida o'zbekona hayo, kattaga hurmat va oilaviy muqaddaslik tushunchalari sustlashgan obrazlar paydo bo'lmoqda. Bu esa tomoshabinlarda o'zlikdan uzoqlashish hissini uyg'otadi.

Bugungi o'zbek kinosidagi asosiy muammolardan biri bu – milliy qadriyatlarni sun'iy ravishda “qo'shishdir”. Qadriyat filmning ichki mazmuniga singib ketishi o'rniga shunchaki dekoratsiya sifatida ishtirok etmoqda.



ALISHER BOZOROV,
“Kino san'ati tanqidi va tahlili”
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Shuningdek, dialoglardan o'rsiz foydalanish yoki personajlarning haddan tashqari ifodasiz, madaniyatsiz qilib ko'rsatilishi millatning umumiy qiyofasiga putur yetkazmoqda.

Zamonaviy o'zbek kinosi milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda shunchaki tashqi ko'rinishga emas balki qahramonlarning ichki dunyosi va ma'naviy olamiga e'tibor qaratilishi lozim. Haqiqiy san'at asari milliy bo'lishi bilan birga, umuminsoniy muammolarni ham badiiy yuksaklikda tahlil qila olishi kerak. Rejissyor va ssenaristlar milliy an'analarni zamonaviy kino tili bilan uyg'unlashtira olsagina, o'zbek kinosi jahon miqyosidagi arenalarda munosib o'rin egallaydi.

O'zbek kinosidagi badiiy talqin muammolarini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

❖ *ssenariy tanqisligi: milliy qahramonning ruhiy olamini ochib beradigan chuqur falsafiy ssenariylar kam;*

❖ *til madaniyati: filmlarda ko'cha so'zlaridan foydalanish yoki personajlarning o'zaro muloqotida milliy lutfning yo'qolib borayotgani tashvishli holatdir;*

❖ *zamonaviy o'zbek kinosi jahon miqyosiga chiqishi uchun u o'z milliy qiyofasini yo'qotmasligi kerak;*

❖ *kino san'atida “milliy ruh” va “zamonaviy texnologiya” sinteziga erishish;*

❖ *ssenaristlarning milliy adabiyot va tarixdan ko'proq bahramand bo'lishini ta'minlash lozim.*

Tijorat filmlarida ham badiiy saviya va axloqiy mezonlarni qat'iy nazoratga olish zarur. Haqiqiy milliy kino tomoshabinni nafaqat kuldirishi yoki yig'latishi, balki uni o'zligi haqida oylantirishi kerak. Shundagina kino san'ati millat ma'naviyatini yuksaltiruvchi qudratli kuchga aylanadi.


QO'RQMADAN – QO'RQQANLARIM

“Qo'rqma” – hatto savol berish jinoyatga aylangan davr haqida...

“Qo'rqma” – bu qo'rquvni yengish haqida yozilgan oddiy kitob emas. Mazkur asarda qo'rquv sabab savol berish taqiqlangan, sukut esa yashash shartiga aylangan davr haqidagi g'oya ilgari surilgan. Unda 1920-yillarda yetmishga yaqin o'zbek yoshlari Germaniyaga bilim olish uchun yuborilgani, ammo ular yurtga qaytgach, aynan shu bilim va tafakkuri sabab yo'q qilinishi tasvirlanadi. Asarda bu fojia bevosita ayblov bilan emas, balki mayda, lekin juda og'riqli fikrlar orqali ochiladi. Masalan, “Maktab istalgan savolni berishing uchun emas, aksincha istalgan javobni olishing uchun”, kabi jumla butun bir tizimning mohiyatini anglatadi. Savol beradigan odam erkin fikrlaydi, erkin fikrla-

gan odam esa boshqaruv uchun xavflidir. Shuning uchun savol emas, tayyor javob kerak bo'lgan. O'sha Germaniyaga ketgan yoshlar esa aynan savol berishni o'rganib qaytgan edi.

Kitobdagi qo'rquv ochiqchasiga qich-qirmaydi, u jimlikda yashaganini tasvirlab beriladi. Ota-onalar sukut saqlashi, qo'shnilar shikoyat bilan arz qilishlari, jamiyat esa tirik qolishni tanlaydi. Shu nuqtada asarda aytilgan yana bir jumla chuqur ma'no kasb etadi: “Qo'rqoqni tug'moqlik hali onalik emas, mardlarni onasigina onadir faqat”. Go'yoki, bu fikr nafaqat ayollarga, balki butun jamiyatga qaratilgandek. Chunki qo'rquvni avlod-dan-avlodga o'tkazish – hayotni davom



ettirish emas, balki uni asta-sekin tugalashdir.

“Qo'rqma” asari juda aniq bir haqiqatni ko'rsatadi: qo'rquv faqat odamlarni emas, butun bir avlodning imkoniyatini yo'q qiladi. O'sha 70 nafar talaba bilan birga bilim, Turkiston ahlining jasorat va kelajak haqidagi orzular ham yo'q qilgan. Eng achi-narlisi, bunga ko'pchilik qo'rquv sabab tomoshabin bo'lib qolgan.

Asardagi “qo'rqma” degan chaqiriq jasoratli bo'lishga emas, balki xotiralarimizni saqlashimiz lozimligiga qaratilgan. O'tmishni eslash, savol berishdan qo'rqmaslik va sukutni buzish – haqiqiy



MUSLIMA RAHMONOVA,
“San'at jurnalistikasi”
2-bosqich talabasi

qarshilikdir. Chunki tarix shuni ko'rsatadiki, savol bermagan jamiyat jim qoladi, jim qolgan jamiyat esa takror xatoga yo'l qo'yadi.



DILYORA MANSUROVA,
“Ashula va raqs” ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi

ANDIJONIM O’G’LONI MUHAMMAD YUSUF

*Daraxt ekib soyasida o’tiray deganda,
Umri tugab qolganini sezgan ekanda,
Ne-ne hofizlarni ko’nglini ovlab,
Yuragim titraydi she’rlarin yodlab,
Olislarda ruhi uchib, parvora endi.*

*Andijonim o’g’loni Muhammad Yusuf,
Shoirlarning sultoni Muhammad Yusuf.*

*Xalq dardiga darmon izlab kechalari,
Nohaq yo’ldan qaytargandir nechalarini,
To’rt qatorli she’ri yetar,
Titratadi yuraklarni,
Osmonlarda ruhi uchib, parvona endi.*

*Andijonim o’g’loni Muhammad Yusuf,
Shoirlarning sultoni Muhammad Yusuf.*



MARJONA XOLTOJEVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi

BAHOR

*Zamin bezovtahol oladi nafas,
Kengliklar kaftiga cho’kar koinot.
Bo’m-bo’sh egatlardan oqib kelar suv,
Bo’z tuproq bag’riga yoyilar hayot.*

*Qora pardasini ko’rsatar osmon,
O’ksinar tollarning quruq novdasi.
Baland qoyalarning shum xayollarin,
Uchirib ketadi tong shabbodasi.*

*Yo’laklar sovqotar qadamlar taftsiz,
Kimsasiz bog’larda zerikar shamol.
Izg’irin shoxlarga qolar ilinib,
Oftob kipriklarini ochadi xiyol.*

*Billur nigohlarda ulg’ayar umid,
Ko’k kiygan tog’larda muhabbat sasi.
Namiqqan bo’z tuproq yoriqlaridan,
Ertangi bahorning kelar nafasi.*

FARZANDLARGA

*Ko’ksin bolish qilib, bolam deb yongan,
Sen bir bora kulsang, ming bor quvongan.
Borin senga berib, o’zidan tongan,
Otang-u onangni avayla, do’stim.*

*Qiymatsiz dunyoning qimmatlari ular,
Allohning senga bir ne’matlari ular.
Yaratgandan faqat baxtingni tilar,
Otang-u onangni avayla, do’stim.*

*Dunyo deb dunyoning ortidan chopma,
Ochiq baxt eshigin qo’lingla yopma.
Qilmishingla boshga baloni topma,
Otang-u onangni avayla, do’stim.*

*Besh kunlik bu dunyo o’tar-u ketar,
Ota-onang duosi umringga yetar.
Yaxshi kun yomon kun hammasi o’tar,
Otang-u onangni avayla, do’stim.*

*Qaytar dunyo derlar, qaytmay qolmaydi,
Taqdir o’z so’zini aytmay qolmaydi.
Baxting quyoshi ham botmay qolmaydi,
Otang-u onangni qadriga yet, do’stim!*



GULSANAM SHODIYEVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati”
ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi



ROZIYA RAVSHONBEKOVA,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

MUHAMMAD YUSUF

*O’zbekning ardoqli, suyuqli o’g’li,
So’z mulkida kezar she’riyat yo’li.
Qalblarga yo’l topgan sof niyat bilan,
Muhammad Yusufdir so’zning bulbuli.*

*Soddadir she’rlari, dilga yaqindir,
Har bir satri go’yo daryo oqindir.
Vatan deb urgan shu yurak sadosi,
Bugun qalbimizda hamnafas turg’undir.*

*Lolaqizg’aldoqlar ochilgan chog’da,
Yodingiz yashaydi har bir yaproqda.
Shoirim, nomingiz doston bo’lib qolgan,
Mangu barhayotsiz bizning tuproqda.*

*Qalblarga nur solib o’tdingiz ustoz,
Sizsiz she’riyatimiz qolar biroz soz.
Muhammad Yusuf deb, ataymiz doim,
O’zbekning qalbidan o’chmas bir ovoz.*

QUVONDIQ YUSUPOV,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi

SINFDOSH QIZ

*Sekin sekin o’chmoqda,
Bu yoshlikning chirog’i.
Sochimga oq tushirdi,
Ul sevgining firog’i.*

*Sinfdoshim edi u,
Yoshi edi o’n yettida.
Ming afsuslar bo’lsinki,
Erga tegib kettida.*

*Ketma, dedim tinglamadi,
Yurakkinam nolasin.
Kecha ko’rdim yetaklab,
Yurar ikki bolasin.*

*Qaytmasligin bilsam ham,
Abad kutib o’taman.
Tor xonamda unga atab,
She’rlar bitib o’taman.*

*Sizga rahmim keladi,
Ey sevgidan kuyganlar.
Sizlar bilan dardim bir,
Sinfdoshin sevganlar.*





MADANIYAT VA SAN'AT TARG'IBOTIDA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga – raqamli texnologiyalar davriga qadam qo'ydi. Internet, sun'iy intellekt, multimedia platformalari va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bu jarayon faqat iqtisodiyot yoki texnika sohasiga emas, balki jamiyatning ma'naviy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, madaniyat va san'atni targ'ib etishda raqamli texnologiyalar yangi uflarni ochib bermoqda. Toshlariga bitilgan bitiklardan tortib, bugungi "bulutli" texnologiyalargacha bo'lgan masofa nafaqat texnik taraqqiyotni, balki ruhning o'zini namoyon etish shakllarini ham o'zgartirdi. Bugun biz shunday bir nuqtadamizki, madaniyat va san'at endi faqat muzeylarning salqin zallarida yoki teatrning baxmal pardalari ortida yashamaydi. U bizning smartfonlarimizda, "IT" olamining cheksiz kengliklarida yangi hayot boshladi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt bugungi kunda san'at olamiga hamda ijod jarayoniga yangi mazmun va imkoniyatlar olib kirmoqda. Bu jarayon nafaqat yangi asarlar yaratilishiga, balki tarixda tugallanmay qolgan san'at namunalarini qayta tiklash va davom ettirishga ham xizmat qilmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, internet va ijtimoiy tarmoqlar milliy o'zligimizni dunyo bozoriga olib chiquvchi eng qudratli vitrinaga aylandi. Bizning maqomimiz, baxshichilik san'atimiz yoki milliy raqslarimiz bugun TikTok yoki Instagramdagi qisqa videolar orqali millionlab xorijliklarning qalbini zabt etmoqda. Ya'ni madaniyat muassasalari va ijodiy jamoalar o'z faoliyatini keng auditoriyaga namoyish etmoqdalar. Masalan, milliy musiqa yoki folklor namunalarining videolari qisqa vaqt ichida millionlab tomoshabinlarga yetib bormoqda. Bu esa milliy madaniyatimizni nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham targ'ib qilish imkonini beradi. Bu san'atning demokratlashuvi, uning elitizm qobig'idan chiqib, xalqchil va universal tilga aylanishidir. Keyingi yillarda O'zbekistonda madaniyatni raqamlashtirish shunchaki tendensiya emas, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Virtual muzeylar vaqt va makon tushunchasini parchalab tashlagan mo'jizadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-sonli Qarorida keltirilgan ustuvor yo'nalishlarda Nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash vazifasi belgilab qo'yilgan. Mazkur Qarorga ko'ra, nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish,

jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun 50 ta audiovizual asarlar yaratish vazifasi ham berilgan va hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan, Nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun 50 ta audiovizual asar yaratish bo'yicha tanlov ham e'lon qilingan. Yana bir qaror ijrosi, qarorga ko'ra, 2024-yil 1-oktyabrgacha "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasi yaratilishi belgilangandi. Hozirgi kunda bu platforma "Loyiha haqida", "Yangiliklar", "Onlayn to'garaklar", "Virtual tur", "Madaniy meros", "Ro'yxatdan o'tish" funksiyalari bilan test rejimida ishlaymoqda. Platforma O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosini (folklor, maqom, baxshichilik, hunarmandchilik, urf-odatlar) asrab-avaylash, ularni tizimlashtirish va dunyoga targ'ib qilish uchun yaratilgan. U nafaqat arxiv, balki jonli merosni saqlab turgan insonlar va jarayonlar o'rtasidagi ko'prikdir. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, axborotlashuv bugungi kuni-mizning asosiy mavzusiga aylanib bormoqda. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvini yanada takomillashtirish, ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish hamda boshqaruvni raqamlashtirish maqsadida ERP (Enterprise Resource Planning) madaniyat platformasi ishlab chiqildi va joriy qilindi. Bu yerda asosiy maqsad nafaqat resurslarni boshqarish, balki ijodiy jarayonlarni tizimlashtirish, madaniy merosni asrash va auditoriya bilan bog'lanishdir. Bu tizim teatrlar, muzeylar, filarmoniyalar, madaniyat markazlari hamda musiqa va san'at maktablari uchun xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiya – bu shunchaki vosita. Bu vosita yordamida ajdodlarimiz merosining ruhini saqlab qolgan holda uni yangi avlodga tushunarli tilda yetkazishdir.

MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti,
Xalq ijodiyoti fakulteti yoshlar bilan
ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari,
NAIMA BOYQOBILOVA,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

XXI asrni ko'pincha "axborot asri" deb atashadi. Chunki bu davrda axborot ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilish jarayoni misli ko'rilmagan darajada tezlashdi. Agar ilgari madaniy tadbirlar, konsertlar yoki ko'rgazmalar faqat ma'lum bir joy va vaqt bilan chegaralangan bo'lsa, bugungi kunda ularni dunyoning istalgan nuqtasidan kuza-tish mumkin.

Bugungi kunda multimedia platformalar orqali yaratilayotgan madaniy kontent yoshlar uchun ayniqsa jozibador bo'lib bormoqda. Shu sababli video, animatsiya, podkast va virtual ekskursiyalar madaniyat targ'ibotining samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda raqamli texnologiyalar madaniyat sohasiga nafaqat yangi imkoniyatlar, balki yangi mas'uliyat ham yuklamog'na. Chunki global axborot maydonida milliy madaniyat va qadriyatlarimizni to'g'ri va munosib tarzda namoyish etish, asrash va uni kelajak avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Raqamli vositalar yoshlar uchun madaniyatni "majburiyat"dan "qiziqish"ga aylantirdi.

Raqamli texnologiyalar madaniyat va san'atni targ'ib qilishda mislsiz imkoniyatlar yaratmoqda. Albatta, har bir jamiyatda yangilikka nisbatan o'z savollari bo'ladi. Raqamlashtirish san'atning "ruhini" o'ldirmaydimi? Onlayn tomosha jonli ijrodagi energetikani bera oladimi? Mening nazarimda, raqamli texnologiyalar asl nusxaning o'rnini bosish uchun emas, balki unga yo'l ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Raqamli dunyodagi go'zallikni ko'rgan inson, albatta, uning aslini ko'rish istagi bilan yonadi. Bu – o'ziga xos "intellektual tuzoq" bo'lib, u iste'molchini yuzakilikdan chuqurlikka, ekrandan hayotga yetaklaydi. Biroq bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish muhimdir. Agar raqamli platformalarda sifatli va mazmunli madaniy kontent yaratilmasa, yoshlar e'tiborini boshqa, ba'zan zararli axborot egallashi mumkin. Shu sababli madaniyat muassasalari, san'atkorlar va ijodiy tashkilotlar raqamli texnologiyalar bilan faol ishlashi zarur. Zamonaviy dizayn, kreativ yondashuv va innovatsion g'oyalar madaniyat targ'ibotini yanada samarali qiladi.

O'zbekistonning boy milliy madaniy merosi – maqom san'ati, baxshichilik an'analari va xalq og'zaki ijodi namunalarini raqamli texnologiyalar orqali qanday qilib yanada qiziqarli va jozibador tarzda taqdim etish mumkin? Bu yo'nalishda virtual konsertlar, maqom galereyalari, interaktiv folklor platformalari kabi innovatsion loyihalar ishlab chiqish milliy madaniyatimizni nafaqat saqlash, balki uni global miqyosda targ'ib etish uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Raqamli texnologiyalar madaniyat va san'at targ'ibotida shunchaki yordamchi emas, balki strategik hamkorga aylandi. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi bilan bu jarayonda peshqadam bo'lishga haqli. Biz faqatgina "iste'molchi" emas, balki dunyoga sifatli, mazmunli va milliy ruh bilan sug'orilgan raqamli kontent taqdim etuvchi "eksportyor"ga aylanishimiz kerak. Zamon shiddatli, ammo madaniyat o'zgarmas qadriyatdir. Raqamli texnologiyalar esa bu qadriyatni asrdan asrga, qalbdan qalbg'a yetkazuvchi nurli ko'prikdir.

ISLOM CIVILIZATSIYASI MARKAZI GINNESNING REKORDLAR KITOBIGA KIRITILDI

Islom sivilizatsiyasi markazi dunyoda inson qo'li bilan bunyod etilgan sakkizinchi mo'jizaga aylanishi mumkinmi?!

Fikrimizcha, mumkin!

Dunyoning yetti mo'jizasidan birini yaratgan millat nega endi sakkizinchi mo'jizani yarata olmas ekan?!

Aytmoqchi bo'lganimiz, Islom sivilizatsiyasi markaziga keling va uni ko'ring. Siz Yangi O'zbekistonda dunyoning sakkizinchi mo'jizasi qad rostlaganiga guvoh bo'ling!

Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi rasman "Eng yirik Islom sivilizatsiyasi muzeyi" sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi!

Qolaversa, markaz "Turkiy dunyoning eng yaxshi muzeyi", deya e'tirof ham etildi.

Demak, adashmabmiz. Ginnesning rekordlar kitobi dunyo ahliga Yangi O'zbekistonda sakkizinchi mo'jiza yaratildi deya bong urdi!

Ishonmasangiz, mana bu xabarni o'qing:



Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi rasman "Eng yirik Islom sivilizatsiyasi muzeyi" sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi.

Ushbu markaz o'zining ulug'vor me'moriy ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi: hudud maydoni – 10 gektar, binoning uzunligi – 161 metr, kengligi – 118 metr, gumbazning balandligi – 65 metr, xonalarning umumiy maydoni esa qariyb 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Aynan shu xususiyatlar jahon rekordiga asos bo'ldi.

Prezident tashabbusi bilan barpo etilgan ushbu majmua nafaqat me'moriy obida, balki islom ilmiy va madaniy merosini dunyoga tanituvchi eng yirik platformaga aylandi.

iccu.uz manbalari asosida
Abdug'ani SODIQOV tayyorladi

Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bu yosh avlodning intellektual salohiyati va ma'naviy kamolotidir. Kitobxonlik esa, ushbu salohiyatni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan fundamental jarayon hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida, axborot oqimining shiddatli tezligi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi an'anaviy kitobxonlik madaniyatiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Yoshlar orasida kitobxonlik darajasining pasayishi, ularning dunyoqarashini toraytirib, tanqidiy fikrlash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkinligi sababli, mazkur muammo dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Prezidentning 2023-yil 28-noyabrda PQ-380-sonli qarori asosida tashkil etilgan "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasi buning yorqin dalilidir. Ushbu tashabbus 14-30 yoshdagi yoshlarning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ilmiy va madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, kitobga muhabbatni singdirish hamda dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etishni o'z ichiga oladi.

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik va madaniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim omili sifatida chuqur nazariy va amaliy tahlilni talab etadi. Zamonaviy tadqiqotlar kitobxonlikni shunchaki matn o'qish emas, balki uni tushunish, talqin qilish, baholash va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Biroq, raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi va axborot oqimining ko'payishi an'anaviy kitobxonlik madaniyatiga jiddiy raqobat tug'dirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va qisqa formatli kontentlar yoshlarning bo'sh vaqtini egalab, ularning diqqatini uzoq muddatli va chuqur o'qishdan chalg'itmoqda. Natijada, yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi, o'qishga ajratiladigan vaqtning qisqarishi va o'qilgan materiallarni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarining yetishmasligi kabi muammolar kuzatilmog'ida.

Yoshlar kitobxonligiga ta'sir etuvchi omillar va mavjud muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ko'plab ichki va tashqi sabablarga bog'liq.

Birinchidan, kitob tanlash mezonlari masalasi dolzarb. Yoshlar ko'pincha qaysi kitobni o'qishni bilmaydilar yoki ularning yoshiga, qiziqishlariga mos kelmaydigan adabiyotlarga duch keladilar. Bu esa o'qishga bo'lgan ishtiyoqni pasaytiradi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati har doim ham yoshlarning zamonaviy ehtiyojlari va qiziqishlarini aks ettirmaydi.

Ikkinchidan, o'qish motivatsiyasining pasayishi asosiy muammolardan biridir. Raqamli muhitda tezkor va vizual ma'lumotlarga o'rganib qolgan yoshlar uchun uzoq matnli kitoblarni o'qish zerikarli tuyulishi mumkin. Kitobxonlikni targ'ib qilishda zamonaviy, interaktiv va yoshlarga yaqin usullardan foydalanish yetishmayapti.

Uchinchidan, raqamli muhitda kitobxonlikni samarali targ'ib qilish mexanizmlarining yetishmasligi sezilmog'ida. "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasi kabi tashabbuslar ijtimoiy tarmoqlarda mavjudligini ta'minlasa-da, bu faqatgina kitoblarni taqdim etish bilan cheklanib qolmasligi kerak.

To'rtinchidan, o'qilgan materiallarni tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalarining yetishmasligi chuqur kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Yoshlar ko'pincha matnni passiv tarzda qabul qiladilar, uning mazmunini chuqur anglash, muallif g'oyalarini tanqidiy baholash va o'z fikrlarini shakllantirishda qiynaladilar. Bu esa, ularning intellektual rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, oilaviy muhitning ta'siri, kutubxonalarning zamonaviy talablarga javob bermasligi, kitob narxlarining qimmatligi va sifatli adabiyotlarning yetishmasligi ham kitobxonlik darajasining pasayishiga olib keluvchi omillar qatoriga kiradi. Axborot-

ning haddan tashqari ko'pligi va "feyk yangiliklar"ning tarqalishi esa yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini yanada zaiflashtirib, ularni ma'lumotni saralash va baholashda qiyinchiliklarga duchor qiladi.

Xalqaro tajribalar va ilg'or amaliyotlar yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirishda kompleks va innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda milliy miqyosdagi kitobxonlik dasturlari amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish xalqaro tajribaning muhim qismidir. Ko'plab mamlakatlarda elektron kutubxonalar, audiokitoblar platformalari va interaktiv o'quv ilovalari keng tarqalgan. Kitobxonlikni rivojlantirishda ham qo'llash, masalan, yoshlarning o'qish odatlarini tahlil qilish va ularga moslashtirilgan intervensiyalar yaratish orqali samaradorlikni oshirish mumkin:

- ✔ ta'lim tizimida kitobxonlikni chuqur integratsiyalash;
- ✔ raqamli muhitda kitobxonlikni innovatsion usullar bilan targ'ib qilish;
- ✔ kutubxonalarni modernizatsiya qilish va ularni jozibador markazlarga aylantirish;
- ✔ oilaviy kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;
- ✔ nashriyot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kitob bozorini rivojlantirish;
- ✔ davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

Ushbu mexanizmlarni amalga oshirishda "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasi kabi mavjud tashabbuslarning salohiyatidan maksimal darajada foydalanish lozim. Loyihaning maqsadi nafaqat kitoblarni tarjima qilish va nashr etish, balki ularning yoshlar tomonidan o'qilishini ta'minlash, o'qilgan materiallar bo'yicha muhokamalar va tahlillarni rag'batlantirish orqali chuqur kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Bu esa, loyihaning YouTube, Instagram va Telegram kanallarida faqatgina ko'rishlar sonini oshirishdan ko'ra, kontentning sifati va interaktivligiga e'tibor qaratishni talab etadi. Masalan, kitoblar bo'yicha onlayn viktorinalar, mualliflar bilan jonli efilrlar, kitobxonlar klublari uchun virtual platformalar yaratish orqali yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin.



Mashhura OLIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Shuningdek, yoshlarning kitobxonlik qiziqishlarini muntazam ravishda o'rganish, so'rovnomalar va tadqiqotlar o'tkazish orqali ularning ehtiyojlariga mos keladigan adabiyotlarni aniqlash va targ'ib qilish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar yordamida yoshlarning o'qish odatlarini tahlil qilish va ularga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish tizimlarini joriy etish orqali kitobxonlikni yanada jozibador qilish mumkin. Bu esa, "Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasining umumiy ruhiga mos keladi va mamlakatning raqamli transformatsiyasiga kitobxonlik sohasini ham integratsiyalash imkonini beradi. Biroq davlat dasturlariga qaramay, o'qish motivatsiyasi pasayishi, raqamli targ'ibot yetishmasligi va tanqidiy tahlil ko'nikmalari zaifligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Kitobxonlik madaniyatini barqaror shakllantirish uchun ta'lim tizimiga chuqur integratsiya, kutubxonalarni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellektdan innovatsion foydalanish hamda oilaviy muhitni mustahkamlash zarur. Bu kompleks yondashuv yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Istirohat bog'i gavjum edi. Bolalar, kulgusi aralash shovqin. Ayol qo'lida nabirasi bilan ketardi.

Qiz onasidan biroz ilgari. Qattiq shamol, qizning yuragini bir lahza notinch qildi. Darhol ortga qaytishi kerakligini his qildi. Negaki, sochlari oqargan, kimyo muolajasidan to'kilgan onasining romolini shamol uchirib ketishidan, odamlar onasining ustidan kulishi, kalaka qilishidan qo'rqdi va onasi tomon yugurdi. Behosdan oyog'i yerga sirg'alib yuztuban yiqildi.

"Eh!"
Cho'zilgan bo'yi va og'ir jussasi atrofda g'ildirak e'tiborini tortgan, kimdir achingan bo'lsa, yana kimdir tekin tomosha, deb jilmayganicha tikilgan. Qizning hayoli hamon onasining romolida.



Tepadan tanish ovoz:
– Voy qizim, ehtiyot bo'lsang bo'lmaydimi?
Qo'lida romol, qaddi tik, ko'zlarida faqat mehr bor edi.

Nozima ULUG'OVA,
"Teatr san'ati" mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Bir qo'lida nabirasi, ikkinchisida esa qizining tirmalgan qo'llari...

Qizning yuragi og'ridi. Ko'zi yoshlarga to'ldi.
– "Sizni odamlarning kulishidan himoya qilmoqchi bo'ldim".

U yerda yotgan holda, butun vujudi bilan onasini quchoqladi va shu daqiqada tushundi: jasorat – faqat yiqilmaslikda emas, balki jasorat – boshqalarni sevishda, ularni himoya qilishda.

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti



Bosh muharrir
Baxtiyor YAKUBOV

Tahrir hay'ati:
Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 30.04.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinisida havola etilmog'ida